

Zamonaviy musiqa fanlarini o'qitishga doir interfaol metodlar

Ibodov O'ktam Rasulovich
BuxDU, o'qituvchi.

Musiqa o'qituvchisi qobiliyatlar psixologiyasini, bola va o'smir shaxsning tipologik hamda yosh xususiyatlarini, ijodiy xususiyatlarining rivojlanish qonuniyatlari va uning eng samarali amalga oshadigan sharoitlarini bilishi zarur.

Maxsus sinf o'qituvchisi avvalo o'quvchilarga umumiy estetik tarbiya berish vazifalarini tushunib olishi lozim. Bu vazifalar musiqa cholg'usini yaxshi chalishni o'rgatishdangina iborat bo'lishi kerak. Bunda, eng muhimi, bolaga musiqani sevishni o'rgatish va unda musiqa mashg'ulotlariga qiziqish uyg'otish, cholg'u asboblari yordamida musiqiy faoliyatga ehtiyoj hosil qilish, shuningdek, maktabni bitirgandan keyin ham loaqal o'z dilxushligi uchun musiqa bilan shug'ullanish imkonini beradigan bilim, ko'nikma va malakalarni tarkib toptirishdir.

Musiqa darslari juda katta tarbiyaviy imkoniyatga ega. Shuning uchun ularning tarbiyaviy va ta'lim uzviy birlikda bir-birini to'ldirgan holda tushunish lozim. Musiqa tarbiyasi mutaxassis musiqachini emas, balki avvalo ziyoli insonni tarbiyalashdir. O'quvchilar bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlar medaga tegib ketmasligi, lekin o'quvchi sezmaydigan yo'sinda doimiy ravishda amalga oshirilishi kerak. Pedagog o'quvchining nimalarga qiziqishi, nimalarni o'qishi va yaxshi ko'rishini, uyidagi sharoiti va oilasidagi munosabatlarini va kokazolarni bilishi lozim. Mana shularni bilib olish maqsadida o'tkaziladigan suhbatlar beixtiyor boshlanishi hamda qiziqarli tarzda borishi, shu suhbatlar natijasida o'quvchi aytayotgan narsalarga o'qituvchi haqiqatdan qiziqayotganini, suhbatlarni faqat o'zining majburiyati sifatida o'tkazmayotganini tushunib yetishi lozim.

Har qanday pedagog uchun maxsus qobiliyatlar ham zarurki, ularsiz tegishli pedagogik faoliyatni amalga oshirib bo'lmaydi. Musiqa o'qituvchisi uchun esa, musiqiy qobilitatlar juda muhimdir. Bunday qobiliyatlar majmui ancha keng va murakkab bo'ladi. Musiqiy-pedagogik faoliyatning xususiyati uning tarkibiy qismlari qatorida badiiy-obrazli komponentning mavjudligidan iborat bo'lib, bu komponent musiqa o'qituvchisi faoliyatining umumiy tarkibida mustaqil kategoriya hisoblanadi. Musiqa o'qituvchisi uchun ijodning ikki turi - og'zaki tushuntirish va musiqa asarini cholg'u asbobida ijro etish muhim ahamiyatga egadir.

Yakka tartibda mashg'ulot olib borish sinfning barcha ishlari har xil uslub janr va shakllardagi musiqa asarlarini o'rganishda amalga oshadi. O'qituvchi o'z shogirdiga asarlarning xususiyatlarini anglab olishni, asarda yashiringan mazmun va g'oyani tushunishni, musiqiy tilning mohiyatiga kirib borishni, ishning usul va yo'llarini o'zlashtirishni o'rgatishi kerak. Bularning hammasi musiqiy ijro etish ehtiyojini tarbiyalashga qaratilgan bo'ladi. Mana shu oxirgi maqsadga erishish uchun o'qituvchining o'zi musiqani astoydil va behad sevishi, o'zidagi ishtiyoqi va tajribani boshqalarga berishiga intilishi zarur. Lekin u buning uchun yetarli darajada sezgir bo'lishi va o'z sinfida bir necha marta o'rganilgan asar ustida har safar ishlashda o'quvchilar bilan birgalikda yangi talqin vujudga kelgandek his qilishi kerak. O'qituvchi o'rganilayotgan asarlarni o'quvchilarga aniq misollar orqali tushuntirish va ko'rsatish uchun avvalo o'zi keng hamda har tomonlama ma'lumotli bo'lishi shart.

Respublika bastakorlarining asarlari ustida ishlashda o'quvchilarda o'rganilayotgan pyesalar xarakterining milliy xususiyatlari haqidagi tushunchani shakllantirish muhimdir. O'quvchi xalq san'ati an'analari deyarli barcha bastakorlar uchun zamin sifatida xizmat qilishini bilib olishi lozim. Chunonchi, xalqning fikr o'ylari va orzuumidlarini ifodalovchi, yuksak badiiy boyliklar namunasi bo'lgan xalq musiqasiga tayanish bastakorlar ijodining asosi bo'lib xizmat qiladi. O'qituvchining asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarda musiqa mashg'ulotlariga to'g'ri munosabatni, mehnatga muhabbatni tarbiyalashdir. U o'quvchini musiqani idrok etish bilan birga, o'z ijrosida ana shu musiqani to'g'ri talqin eta olishga o'rgatib borishi kerak. Bunda muallifning matniga, muharrirning ko'rsatmalariga, turli belgilarga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishni tarbiyalash zarur. O'quvchi faqat qisqa muddatli ijodiy topqirlik va yutuqlar bilan cheklanmay, ijodiy muvaffaqiyatlarga erishish yo'llarini topishga intilishi zarur. Shu jarayonda ko'p narsa o'qituvchining har bir o'quvchiga yakka tartibda yondashuviga bo'g'liqdir. U ishda muvaffaqiyatga erishish uchun o'quvchi shaxsini yaxshi bilishi, uni doimo kuzatishi, shuningdek, o'zining yosh musiqachiga munosabatini, uning mashg'ulot paytidagi hatti-harakatlarini tahlil qilishi kerak. Har bir o'quvchining fe'l - atvorida albatta ijobiy va salbiy hislatlar bo'ladi. O'qituvchining mahorati o'quvchining yaxshi xislatini bilish va undagi qolgan barcha sifatlarni ana shu yaxshi xislatga yo'naltira olishdir.

Fortepiano sinfidagi o'quvchilarga ta'lim va tarbiya berish jarayoning asosi turli musiqa asarlari ustida ishlashdan iborat bo'lib, ular ana shu jarayonda har xil janrlar va uslublar bilan tanishadilar, asarlarning musiqiy

tilini o'zlashtiradilar. Yirik shakl janrlari har bir ijrochiga muayyan talablar qo'yadi. Lekin har qanday yirik shaklga xos umumiy qiyinchiliklar mavjuddir.

O'quvchilar sonatina adabiyoti (Mozart, Beethoven, Haydn, Dussek) materiallarini o'rganishdayoq navbatdagi venalik mumtozlarining sonatalarini o'rganishga tayyorlanadilar.¹ [1.32.29-34] O'quvchilarni kamol toptirishda Haydn, Mozart, Beethoven sonatalari allegrosi ustida ishlash birinchi o'ringa qo'yiladi. Ular keng musiqiy fikrlashning shakllanishiga asos bo'ladi va bunday fikrlash keyinchalik sonata shaklining barcha qismlarini ichro etishda nihoyatda zarurdir. Ta'limning mazkur qismida yirik shaklli asarlardan variatsion sikllarni o'rganishga eng ko'p o'rin beriladi.

Sonatalar allegrosini o'quvchilar oldiga qo'yiladigan vazifalar musiqa shakllarining strukturasi va protsessual - dinamik jihatlarini bilib olishga qaratiladi. Odatda sonatalarning bosh va yordamchi partiyalari kontrastli bo'ladi, yani ularda qahramonlik mavzusi lirik mavzu bilan almashinadi, xitob-tantanavorlik mavzusi jo'shqin hazil mavzusi bilan almashinadi va hokazo.

O'quvchilar bir onda yangi musiqiy obrazga qo'shilishlari kerak, buning uchun rang baranglikni egallashdan tashqari, o'z apparatini muayyan xarakterdagi jaranglashni hosil qilishga moslashtirish ko'nikmasini ham o'zlashtirish zarur. Bu ko'nikma musiqiy obrazning mohiyatiga chuqur kirib borish va tagishli ijrochilik xarakterlarini o'rganish orqali asta-sekin tarbiyalanadi. O'quvchilar sonatalardagi pauzalarni doimo yaxshi bajaravermaydilar va ko'pincha ularni o'zlaricha sanab, su'atni tezlashtirib yuboradilar. Shuning uchun o'quvchiga pauza doimo qandaydir muayyan mavzu bilan to'ldirilishini: u jaranglashning kuchayishi yoki pasayishidan iborat bo'lishi mumkinligini, kutish pauzasi, savol pauzasi va boshqa pauzalar mavjudligini tushuntirish zarur.

O'quvchi musiqiy fikrning tugashini anglatmaydigan, balki, aksincha uni davom ettiradigan pauzani tinglay olishi kerak. O'quvchi bilan sonatalarning uncha murakkab bo'lmagan kontilena qismlari ustida ishlashda birinchi galda ijroning eng muhim shartlaridan biri cho'zimi har xil tuzulishlarda ohang yo'lini yagona harakatda olib borishdir. Mana shunday ohang nafasini egallash o'quvchiga ritmik toxtashlar yoki pauzalar vaqtida ohangni har xil shtrixlar bilan ajratishda qisqa motiv figuralariga bo'lishda uning intonatsion

¹Донгаузер Е. В. Музыкальное образование в немецких народных школах (на примере федеральной земли Бавария) // Музыка в школе. 2003.- № 3. С.44– 50.

rivojlanishining yaxlit yo'lini saqlash imkonini beradi. Lekin ohangni ifodali ijro etishni uning faktura doirasidan ajralgan holda tushunmaslik lozim. Bunda gap akkord yoki figuratsiya fonining xarakteri va strukturasi, epizodik joylashgan ovozlari, ohang va jo'rlikning registrliligi bog'lanishi haqida borayotir.

Musiqasi inson qalbida go'zal tuyg'ularni uyg'otadi, uni yaxshi amallarni bajarishga chorlaydi. Shu bilan birga, musiqasi, ayniqsa, yoqimli ovoz, yuksak ta'sir kuchiga ega bo'lib, uni eshitish bilan inson ichki alamlardan xoli bo'ladi. Kishi har qanday qiyinchilikni, hatto ochlik, tashnalikni esidan chiqaradi. Musiqasi og'ir mehnatdan keyin dam olishning yaxshi vositasidir.

Musiqasi madaniyatining ildizlari qadim davrlarda shakllangan xalq musiqasi ijodida borib taqaladi. Har bir xalqning uzoq asrlardan kelayotgan, ajdodlardan avlodlarga bebaho ma'naviy meros bo'lib qolayotgan kuy va qo'shiqlari bor. Kompozitor va bastakorlar o'zlari ijod qilayotgan kuylari, simfoniya va opera kabi asarlarida xalq musiqasiga tayanadilar. Bu janrlarda yaratilgan xalqchil musiqasi asarlarining tinglovchiga badiiy-hissiy ta'sir kuchi ham yuqori bo'ladi. Musiqasi inson ma'naviy boyligini shakllantirishdagi va uni tarbiyalashdagi ahamiyati inobatga olinib, har bir mamlakatda ushbu san'atni yosh avlodga o'rgatishga mo'ljallangan maxsus o'quv maskanlari ochilgan. Shuningdek, taniqli san'atkorlar ijrosida magnit tasmlari va CDga yozib olingan asarlar omma orasida targ'ib qilinadi. Musiqachilarning turli xil konsert zallari va radio-televideniye dasturlari orqali chiqishlari ham hozirda odatiy bo'lib qolgan. Bularning barchasi hozirgi musiqasi madaniyatini tashkil qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

Ражабов Тухтасин Ибодович, Ибодов Уктам Расулович ОБЕСПЕЧЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНОГО НАСЛЕДИЯ В ОБУЧЕНИИ ПЕСНЯМ БУХАРСКОГО ДЕТСКОГО ФОЛЬКЛОРА НА УРОКАХ МУЗЫКИ // Вестник науки и образования. 2020. №21-2 (99). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/obespechenie-natsionalnogo-naslediya-v-obuchenii-pesnyam-buharskogo-detskogo-folklor-na-urokah-muzyki> (дата обращения: 26.10.2023).

Rajabov T. I., Ibodov O. R. O'zbek Xalq Musiqasi Merosida O'quvchilarni Vatanparvalik Ruhida Tarbiyalash Vositasi // IJTIMOIIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIIY JURNALI. – 2021. – T. 1. – №. 6. – S. 139-145.

Ибодов У. Р. ИНСТРУМЕНТАЛЬНАЯ МУЗЫКА КАК ОРУДИЕ ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ВЛИЯНИЯ НА ЧЕЛОВЕКА // Рекомендовано к печати Ученым советом Института психологии имени ГС Костюка НАПН Украины (Протокол № 14 от 28 декабря 2020). – 2020. – С. 336.

Каюмов Ибрагим Файзуллаевич ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ИСТОКИ МУЗЫКИ // Academy. 2020. №11 (62). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/psihologicheskie-istoki-muzyki> (дата обращения: 26.10.2023).

Каюмов Иброхим Файзуллоевич, Жураева Мафтуна МЕСТО МУЗЫКИ В ВОСПИТАНИИ ДУХОВНО-НРАВСТВЕННЫХ КАЧЕСТВ УЧАЩИХСЯ 5-7 КЛАССОВ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛ // Проблемы педагогики. 2020. №3 (48). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/mesto-muzyki-v-vospitanii-duhovno-nravstvennyh-kachestv-uchaschihsya-5-7-klassov-obscheobrazovatelnyh-shkol> (дата обращения: 26.10.2023).

Fayzullaevich Q. I. Culture and art values and aesthetics in formation factors. – 2021.

Kholmurodovna R. O., Esanova M. J. The Importance of Imagination and Perception in Traditional Singing Performance //Pioneer: Journal of Advanced Research and Scientific Progress. – 2023. – Т. 2. – №. 2. – С. 73-74.

Рамазонова У. Х., Сайфуллаева О. М. Развитие чувства ритма у детей //Проблемы науки. – 2021. – №. 1 (60). – С. 49-51.

Ramazonova U. X., Esanova M. J. An'anaviy xonandalik rivojida maqomlarning o'rni //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 496-501..

Ramazanov O. K., qizi Mustaqimova G. G. Formation and Development of National Musical Traditions //european journal of innovation in nonformal education. – 2022. – Т. 2. – №. 1. – С. 336-339

Каримов О. И. Садриддин Айни-знаток и любитель народной музыки //Вопросы науки и образования. – 2021. – №. 13 (138). – С. 21-24.

Каримов О. И. Бўлажак мусиқа ўқитувчиларида маънавий-ахлокий сифатларни шакллантириш //Scientific Impulse. – 2022. – Т. 1. – №. 2. – С. 377-381.

Каримов О. И. Профессиональные музыкальные взгляды будущего учителя музыки //Вестник науки и образования. – 2020. – №. 22-2 (100). – С. 17-20.

Boltayev B. N. BUXORO SHASHMAQOMI VA XORAZM MAQOM IJROCHILIGIDA MUSHKULOT (CHERTIM) VA NASR (AYTIM) YO'LLARI SEMANTIKASI //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – С. 776-782

Hamidovich B. B. Classification of the Bukhara Status (" Shashmakom") System //AMERICAN JOURNAL OF SCIENCE AND LEARNING FOR DEVELOPMENT. – 2023. – Т. 2. – №. 4. – С. 109-111.

Болтаев Б. Х. Описание приёмы и методики представителей исторического генезиса и этапов узбекского музыкального обучения //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 806-813.

Azimovna S. M. et al. THE BUKHARA PERFORMANCE STYLE IS A FACTOR IN THE DEVELOPMENT OF MORAL QUALITIES OF TEENAGERS //Academia Science Repository. – 2023. – Т. 4. – №. 04. – С. 1067-1071.

Samiyeva M. A., Ramazonov A. V. O 'ZBEK MUMTOZ MUSIQASI-O'QUVCHILAR QIZIQISHINI SHAKLLANTIRISH OMILI //BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – Т. 2. – №. 12. – С. 31-36.

Azimovna, Samiyeva Mehriniso. "THE BUKHARA PERFORMANCE STYLE IS A FACTOR IN THE DEVELOPMENT OF MORAL QUALITIES OF TEENAGERS." *Academia Science Repository* 4.04 (2023): 1067-1071.

Samiyeva Mehriniso Azimovna, & G'aybullayev Quvonchbek G'olibovich. (2023). THE BUKHARA PERFORMANCE STYLE IS A FACTOR IN THE DEVELOPMENT OF MORAL QUALITIES OF TEENAGERS. Web of Scientist: Interneti

Мустафоев Б. И. ОСОБЕННОСТИ УРОКОВ МУЗЫКИ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ //Достижения науки и образования. – 2019. – №. 1. – С. 46-48. onal Scientific Research Journal, 4(04), 1067–1071

Мустафаев.Б.. МУЗЫКАЛЬНО–ОБРАЗОВАТЕЛЬНАЯ И ПРОСВЕТИТЕЛЬСКАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ АБДУРАУФА ФИТРАТА //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023 - Т. 34. – №. 34 .journal.buxdu.uz <https://buxdu.uz> Page 1 Международный научный журнал № 2 (100), часть 2 «Научный импульс» сентябрь, 2022 361

Мустафаев Б. Restoration of the System of Music Education in Uzbekistan in 1920 1940 Years //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 23. – №. 23.

Камолов Ш. Х. Приёмы и методы преподавания музыки в общеобразовательной школе //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 602-607

Камолов Ш. Х., Бомуродов Ш. Ш. Педагогический характер студенческой молодежи и психологический подход //Academy. – 2021. – №. 3 (66). – С. 60-62.

Равшан Р. Р. ЗАМОНАВИЙ БАЙРАМЛАР РЕЖИССУРАСИДА ХАЛҚ ИЖОДИ НАМУНАЛАРИ ТАЪСИРЧАН ВОСИТА СИФАТИДА //ТА'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – С. 117-122.

VOLUME-1, ISSUE-4

Равшан Р. Р. ЗАМОНАВИЙ БАЙРАМЛАР РЕЖИССУРАСИДА ТАЪСИРЧАН ВОСИТАЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ УСУЛЛАРИ //ТА'ЛИМ ВА RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – С. 136-144.

Равшан Р. Р. ТЕАТР ТОМОШАЛАРИДА ТАЪСИРЧАН ВОСИТАЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ УСУЛЛАРИ //ТА'ЛИМ ВА RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – С. 145-151.

Urinov S. K., Nematullayeva S. CULTURAL CENTERS ARE A PLACE OF KNOWLEDGE AND ENLIGHTENMENT //Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 4. – С. 100-106.

Mo'Minmirzo Zokir O. G. L. et al. TEATR FAOLIYATIDA BOSHQARUV JARAYONLARINI TASHKIL ETISH USULLARI //Oriental Art and Culture. – 2022. – Т. 3. – №. 2. – С. 57-62.

Xolmo'minov M. Z. O. L. et al. MADANIYAT MARKAZLARIDA TO'GARAKLARNI TASHKIL ETISH MUAMMOLARI //Oriental Art and Culture. – 2022. – Т. 3. – №. 3. – С. 102-107.

Ravshanovich H. H. O'QUVCHI YOSHLARDA IJRO MALAKALARINI O'STIRISHDA FANLARARO ALOQADORLIK // " USA" INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE TOPICAL ISSUES OF SCIENCE. – 2023. – Т. 8. – №. 1.

Ravshanovich H. H., Hakimovich X. J. ESTETIK TARBIYA BERISH JARAYONIDA O'ZBEK XALQINING MUSIQIY MEROSIDAN FAYDALANISH //World of Science. – 2023. – Т. 6. – №. 6. – С. 73-74.

Ravshanovich H. H. MUSIQA DARSLARINI O'QITISHDA FANLARARO ALOQADORLIKNING AHAMIYATI //JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH. – 2023. – Т. 6. – №. 6. – С. 11-14.

Абдуллаев К. Ф., Умурова М. Ё. ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ УРОКА ПЕНИЯ В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ //CENTRAL ASIAN JOURNAL OF MATHEMATICAL THEORY AND COMPUTER SCIENCES. – 2023. – Т. 4. – №. 2. – С. 66-69.

Umurova M. Y. Educational Significance of Children's Folklore Songs //AMERICAN JOURNAL OF SCIENCE AND LEARNING FOR DEVELOPMENT. – 2023. – Т. 2. – №. 4. – С. 148-152.

Umurova M. Y. Formation of Patriotic Feeling in Youth Students through Folk Songs //Pioneer: Journal of Advanced Research and Scientific Progress. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 99-103.

Ражабов, Т. И. (2023). Совершенствование Механизма Духовно-Нравственного Формирования Учащихся Через Узбекские Народные Песни. *Miasto Przyszłości*, 33, 167-176.

Ражабов, Т. И. (2021). Ўқувчи-ёшларга ўзбек миллий музыка фольклори намуналари воситасида эстетик тарбия бериш. *Science and Education*, 2(11), 1094-1103.

Тўхтасин, Р. И. (2022). ЎЗБЕК ХАЛҚ ҚЎШИҚЛАРИ ВА ИЖРОЛАРИ ҲАҚИДА. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, (Special issue), 64-71.

Rajabov, T. I. The Mechanism of Teaching Uzbek Musical Folklore. *Procedia of Philosophical and Pedagogical Sciences* ISSN, 2795(546X),

Ражабов, Т. (2023). О ‘zbek bolalar musiqiy o ‘yin folklorining mavzuiy tasnifi. *Общество и инновации*, 4(5/S), 340-345.

КО‘rinov S., Sadullayeva S. MUZEYSHUNOSLIK ISTIQBOLLARI //IJODKOR O‘QITUVCHI. – 2023. – Т. 3. – №. 26. – С. 97-101.

Orinov, Sh K., and H. Abdusalomova. "TEATRLAR FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI." *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI* (2022): 766-770.

Orinov S. K. et al. UNDER THE ADMINISTRATION OF THE FIELD OF CULTURE AND ARTS FOREIGN MODELS (US EXAMPLE) //INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM. – 2023. – Т. 3. – №. 27. – С. 214-221.

O‘rinov S. K., Nematullayeva S. BADIY HAVASKORLIK TO‘GARAKLARINI TASHKIL ETISHNING ZAMONAVIY METODLARI //Наука и технология в современном мире. – 2023. – Т. 2. – №. 5. – С. 58-61.